

Uzbekistan Airways Tel-Avivda IMTM-2026 O'rta yer dengizi xalqaro sayyohlik yarmarkasida ishtirok etmoqda

2026 4 Fevral

Ko'rgazmaning birinchi kunidayoq aviakompaniya stendi ko'plab tashrif buyuruvchilar: ham turizm bozori mutaxassislari, ham bo'lajak sayohatchilarning e'tiborini tortdi. Uzbekistan Airways vakillari hamkorlar bilan bir qator ishbilarmonlik uchrashuvlari va muzokaralar o'tkazmoqda.





Aviakompaniyaning IMTM-2026'da ishtirok etishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan vazifalarga muvofiq bo'lib, O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini xalqaro maydonda targ'ib qilish imkonini beradi.





Eslatib o'tamiz, Toshkent - Tel-Aviv - Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlarni muntazam ravishda - dushanba va payshanba kunlari amalga oshiriladi.